

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI

XAITOV BAHODIR TURSUNOVICH

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti
Gumanitar fanlar kafedrası katta o'qituvchisi, dotsent*

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidchilik harakati hamda Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishi va rivojlanishi haqida so'z boradi. Jadidchilik harakatining eng atoqli yo'l boshchilari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqa ko'plab ma'rifatparvar bobolarimizning sa'y-harakatlari ushbu harakatning keng miqyosda yoyilishiga xizmat qilganligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: jadid, jadidchilik, istiqlol, yangicha qarash, ta'lim-tarbiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar.

Аннотация. В статье рассматривается движение джадидов, его возникновение и развитие в Туркестане. Подчеркивается, что усилия виднейших лидеров джадидского движения Махмудходжи Бехбудий, Мунавваркори Абдурашидханова, Абдуллы Авлоний и многих других просвещенных предков способствовали широкому распространению этого движения.

Ключевые слова: джадид, джадидизм, независимость, новая перспектива, образование, национальные и общечеловеческие ценности.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar harbiy sohani ham chetlab o'tgani yo'q. Jumladan, 2018-yil 9-yanvarda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Doktrinasi¹, 2018-yil 23-fevralda "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi"², 2018-yil 4-avgustda "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"³, 2023-yil 29-iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 267-sonli "2023-2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi"⁴ va boshqa ko'plab huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonuni, 9-yanvar 2018 y. lex.uz

² "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori, 23-fevral 2018 y. lex.uz

³ "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" PQ-3898. 4-avgust 2018 y. lex.uz

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", Toshkent sh., 2023 yil 29 iyun, 267-son.

Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari insoniyat xavfsizligi va mamlakatlar barqarorligini ta'minlash bilan aloqador muammolarni kun tartibiga olib chiqmoqda. Tobora avj olib borayotgan ma'naviy xurujlar, yot g'oya va mafkuralar, zararli axborotlar oqimining ta'sirida inson qalbi va ongini zabt etishga harakat ham kengayib bormoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqmiz” deb alohida ta'kidlaydi⁵.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida faoliyat olib borgan jadidchilik harakati namoyondalarining ma'naviy merosidan unumli foydalanish, yoshlarni barkamol avlod sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega ekanligi hech kimga sir emas.

Zero muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: “Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo'lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega”⁶.

Turkistonda jadidchilik milliy-ozodlik kurashi jarayonida yuzaga kelgan, o'zbek xalqi tarixida yangi sahifani ocha boshlagan ijtimoiy harakat bo'lganligi bilan ajralib turadi. Ularning dunyoqarashida vatanparvarlik, millatparvarlik, ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik kabi g'oyalar yetakchilik qilgan. O'lkani mustamlaka zulmidan ozod qilishni jadidlar hamma narsadan ustun qo'ydilar. Jadid ziyolilari erk, istiqbolga erishish uchun milliy ongni o'stirish zarurligini payqadilar. Shu orqali milliy uyg'onish yasamoqchi bo'ldilar. Buni esa ta'lim va tarbiyada – ma'rifatda deb bildilar. Mana shuning uchun ham jadidlar yangicha ta'lim va tarbiya tizimini qaror toptirish yo'lida tinim bilmay ishladilar.

Jadidlar millatni qoloqlik, xurofot botqog'idan olib chiqish uchun harakat qilar ekanlar, bunda shariatga qat'iy rioya qilish orqali maktab va madrasalarda ta'lim berish tizimini dunyoviy ilmlarni berish asosida isloh qilish g'oyasini ilgari surganlar va bu borada o'zlari amaliy harakat namunasini ko'rsatganlar.

“Jadidchilik”ning asosida “jadid” so'zi yotadi. “Jadid”ning ma'nosi “yangi” demakdir. U shunchaki “yangi” yo bo'lmasa, “yangilik tarafdori” degani emas. Balki “yangi tafakkur”, “yangi inson”, “yangi avlod” singari keng ma'nolarni o'zida mujassam etgan.

Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrim tatarlari o'rtasida vujudga keldi. Jadidchilik harakati namoyondalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining

⁵ Sh.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnoma. 2020-yil 24-yanvar. www.uza.uz

⁶ Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. –T.: “O'zbekiston”, 2023, 5-jild, 69-b.

umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar.

Jadidchilik – yangilanish, yangi usul ma’nosini anglatadi. U yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullari, yo’llari tarafdorlarining umumiy nomi.

Ushbu soʻzning kirib kelishi Ismoilbek Gasprali ochgan yangi maktab nomi bilan bogʻliq. U yozadi: “1884 sanasi Boqachasaroyda bir maktabni “usuli jadid”a nomlamish edim”⁷.

Ismoil Gasprali gʻoyalari Turkistonga ham kirib keladi. U 1893-yilda Turkistonga sayohat qiladi. Samarqand, Buxoro va Toshkent shaharlarida ilgʻor ziyolilar bilan uchrashadi. Buxoroda amir huzurida boʻlib, bitta jadid maktabini ochishga rozilik oladi. Buxoroda “Muzaffariya” nomli ilk jadid maktabi faoliyat yurtita boshlaydi. 1898-yilda Qoʻqonda Salohiddin domla, 1899-yilda Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktablarini tashkil etadilar. 1903-yilga kelib Turkistonda 102 ta boshlangʻich va 2 ta oʻrta jadid maktablari faoliyat koʻrsata boshlaydi.⁸

Jadidlarning asosiy gʻoya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni oʻrta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa maʼrifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini oʻrnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qoʻshin tuzish⁹.

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxoʻja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Saidahmad Siddiqiy-Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxoʻjayev (Ubaydulla Xoʻjayev), Toshpoʻlatbek Norboʻtabekov (Toshkent), Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xoʻjayev, Usmonxoʻja Poʻlatxoʻjayev, Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Choʻlpon, Isxoqxon Ibrat, Muqammadsharif Soʻfizoda (Fargʻona vodiysi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboovun Salimov (Xorazm) turardi.¹⁰

Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati, tarqalish joyi va yoʻnalishiga koʻra, uchga boʻlinadi: Turkiston, Buxoro va Xiva jadidchiligi.

Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari oʻrtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston oʻlkasidagi jadidlarning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi. Ular chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning

⁷ B.Qosimov. Milliy oʻygʻonish. –T.: “Ma’naviyat”, 2002, 5-6-b.

⁸ Q.Usmonov va b. Oʻzbekiston tarixi. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2016, 226-b.

⁹ B.Xaitov. Jadidchilik harakati namoyondalari. Oʻquv qoʻllanma. –Chirchiq.: “CHOTQMBY nashriyoti”, 2024, 33-b.

¹⁰ M.Rahimov, A.Zamonov. Oʻzbekiston tarixi. –T.: “Fan”, 2019, 317-b.

xom ashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so'ng mustaqil davlat bo'lishini yoqlab chiqdilar.

Buxorodagi jadidlar Turkistondagiga nisbatan og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullavachchalar, mayda do'kondorlar va ma'murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o'rtasida nufuzi avvaliga past bo'lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo'lishdi. Buxoroda vobkentlik dehqon Jo'raboy ilk yangi usul maktabini ochgan edi. Buxorodagi jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo'lgan qadimiylar oqimi qarshi chiqdi.

XX asr boshlarida Buxoro jamiyati 2 guruhga: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimiylarga bo'lingan edi. 1908-yilda "Buxoroi sharif shirkati" tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug'ullandi. Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov), Usmonxo'ja Po'latxo'jayev (Usmon Xo'ja), Homidxo'ja Mehriy, Abdulvohid Burhonov, Abdulqodir Muhiddinov, Sadridin Ayniy, Abdurahmon Sa'diy shirkatning tashkilotchilari edi.

1909-yil dekabrda jadidlar Buxoroda "Tarbiyai atfol" ("Bolalar tarbiyasi") maxfiy jamiyatini tuzishdi (asoschilari: Abdulvohid Burhonov, Homidxo'ja Mehriy, Ahmadjon Hamdiy, Mukammil Burhonov, Hoji Rafe).

Abdulla Avloniy ham "Jamiyati xayriya" tuzib, yetim bolalarni o'qitgan. 1909-yili Toshkentda Munavvarqori tomonidan "Jamiyati Imdodiya" tuzilgan. U ham miskin va ojiz talabalarga yordam bergan, yoshlarni chet elga o'qishga yuborishga yordamlashgan. "Ko'mak" xayriya jamiyati ham Toshkentda 1909-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning ta'sischilari Munavvarqori Abdurashidxonov, Nizomqori Hasanov, Abdulla Avloniy, Basharulla Asadullaxo'jayev va Toshxo'ja Tuyoqboyevlar bo'ldi. "Ko'mak" jadid maktablariga katta yordam ko'rsatgan va iste'dodli yoshlarni xorijga o'qishga yuborishga ko'maklashgan. Xorijdagi ta'lim yoshlar dunyoqarashida tubdan burilish yasadi¹¹.

Jadidchilik Buxoro va Turkistonda bir vaqtda boshlangan bo'lsa ham, amirlikdagi og'ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi. 1910-yildan boshlab Buxoroda jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi va "Tarbiyai atfol" maxfiy jamiyati asosida partiya tashkil topdi.

XX asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o'ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik

¹¹ M.Rahimov, A.Zamonov. O'zbekiston tarixi. –T.: "Fan", 2019, 319-b.

boylarning vakillarini o'ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo'ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o'ng oqimi o'z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo'l ochib berishni maqsad qilib qo'ygan.

Xivada jadidchilikning so'l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo'lib, qozikalon Boboovun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o'stirish maqsadini qo'yishgan edi. 1904-yil "Jamiyati xayriya" tuzilib, uning ko'magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi. Xiva jadidlari ma'rifiy ishlar bilan kifoyalanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo'lmagan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib, 1914-yildan u partiya shaklini olgan¹².

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda nafaqat siyosiy-iqtisodiy, balki maorif va madaniy hayotda ham Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati yaqol namoyon bo'ldi. O'lkaning madaniy-ma'rifiy hayotini cheklab, o'z manfaatlariga bo'ysundiruvchi yo'l tutildi, buyuk davlatchilik g'oyalari Turkistonda zo'rlik bilan joriy etildi, milliy madaniyat va ma'naviy qadriyatlar toptaldi.

Ammo, aholining aksar qismi qanchalik murakkab bo'lmasin o'z Vatanlarining erki va ozodligi uchun qo'lga qurol olib kurashdilar. Bu kurash aytarli natija bermagach, "haqiqiy najot – ilm-ma'rifat" ekanligini tushunib yetdilar. Jadidchilik xuddi shunday qaltis vaziyatda yuzaga kelib, aholining ongi va qalbida ertangi kunga umid uyg'otdi, minglab insonlarni qalbini yoritib erkin va ozod mamlakat uchun kurashga chorladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonuni, 9-yanvar 2018 y. lex.uz
2. "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori, 23-fevral 2018 y. lex.uz
3. "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" PQ-3898. 4-avgust 2018 y. lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", Toshkent sh., 2023 yil 29 iyun, 267-son.

¹² B.Xaitov. Jadidchilik harakati namoyondalari. O'quv qo'llanma. –Chirchiq.: "CHOTQMBY nashriyoti", 2024, 29-41-b.

5. Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnoma. 2020-yil 24-yanvar. www.uza.uz
6. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. –T.: “O‘zbekiston”, 2023, 5-jild.
7. B.Qosimov. Milliy o‘yg‘onish. –T.: “Ma’naviyat”, 2002-y.
8. Q.Usmonov va b. O‘zbekiston tarixi. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2016, 226-b.
9. B.Xaitov. Jadidchilik harakati namoyondalari. O‘quv qo‘llanma. –Chirchiq.: “CHOTQMBY nashriyoti”, 2024, 33-b.
10. M.Rahimov, A.Zamonov. O‘zbekiston tarixi. –T.: “Fan”, 2019, 317-b.